

**KUCLI TA'SIR ETUVCHI ZAHARLI MODDALAR BILAN BOG'LIQ
FAVQULODDA VAZIYATLARNI OLDINI OLISHDA YANGI
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA OLIB BORILADIGAN
YO'RIQNOMALARNING AHAMIYATI**

Isoqov Abdurashid Qutbiddinovich

Namangan viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

Namangan shaxar, Oromgoh ko'chasi, 5

gmail: abdurashidisakov206@gmail.com

Annotatsiya. Kuchli tasir etuvchi zaharli moddalarning inson organizmi va atrof-muhitga ko'rsatishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlari hamda ulardan muhofazalanishdagi mavjud muammolar ko'tarilgan. Shuningdek, ushbu turdagi avariylarni oldini olishda yo'riqnomalarning ahamiyati hamda avariya sodir bo'lganda fuqaro muhofazasi boshliqlarining vakolat va majburiyatlari borasidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kuchli ta'sir etuvchi zaharli modda, kimyoviy xavfli obyekt, fuqaro muhofazasi boshlig'i, xavf, zaharlanish, qutqaruv tuzilmalari, razvedka, shaxsiy himoya vositalari, yo'riqnoma, muhofaza.

**ЗНАЧЕНИЕ ИНСТРУКЦИЙ НА ОСНОВЕ НОВЫХ
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕДУПРЕЖДЕНИИ
ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ, СВЯЗАННЫХ С
СИЛЬНОДЕЙСТВУЮЩИМИ ТОКСИЧЕСКИМИ ВЕЩЕСТВАМИ**

Исаков Абдурашид Кутбиддинович

Управление по чрезвычайным ситуациям Наманганской области

г. Наманган, ул. Оромгох, 5

gmail: abdurashidisakov206@gmail.com

Аннотация. Усугубляются негативные последствия, которые сильнодействующие токсичные вещества могут оказывать на организм человека и окружающую природную среду, а также существующие проблемы в их защите. Также упоминается важность директив для

предотвращения такого рода аварий, а также информация о полномочиях и ответственности руководителей гражданской обороны в случае аварии.

Ключевые слова: сильнодействующее отравляющее вещество, химически опасный объект, руководитель гражданской защиты, опасность, отравление, спасательные структуры, разведка, средства индивидуальной защиты, инструктаж, защита.

THE IMPORTANCE OF INSTRUCTIONS BASED ON NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE PREVENTION OF EMERGENCIES RELATED TO HIGHLY TOXIC SUBSTANCES

Isakov Abdurashid Qutbiddinovich

Department of Emergency Situations of Namangan region

Namangan city, Oromgoh street, 5

gmail: abdurashidisakov206@gmail.com

Annotation. The negative effects that highly toxic substances can have on the human body and the environment, as well as existing problems in their protection, are aggravated. The importance of directives to prevent such accidents is also mentioned, as well as information on the powers and responsibilities of civil defense leaders in the event of an accident.

Keywords: strong-acting poisonous substance, chemically dangerous object, concentration, danger, poisoning, rescue structures, intelligence, personal protective equipment, instruction, protection.

Kirish

Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar orasida kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar bilan bog'liq obyektlardagi avariyalar o'zining keltiradigan talofatlari yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bunday obyektlarda avariya sodir bo'lgan taqdirda, faqat obyekt ishchilarining salomatligiga xavf tug'dirmasdan, balki uning atrofida joylashgan hudud aholisiga ham xavf tug'diradi. Shu sababli ham bunday turdagi

avariyalar sodir bo'lganda aholi xavfsizligini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishga zarurat tug'ilmoqda [1].

Adabiyotlar tahlili

Muallif tomonidan maqola matnini tayyorlash mobaynida ko'plab xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar va ishlanmalar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganib chiqilib, tahlil qilindi. Xususan, F.A.Abidova va A.B.Abidovlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish natijasida ishlab chiqilgan o'quv qo'llanmada [2] kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar hamda ba'zi suyuqliklarning xususiyatlari, reaksiyaga kirishish qobiliyatlari, ularning fizik-kimyoviy xossalari va inson organizmiga ta'siri hamda ulardan muhofazalanishda ishlatiladigan shaxsiy himoya vositalari batafsil yoritib berilgan. Shuningdek, soha bo'yicha xorij mutaxassislari A.V.Zyuzin, V.I.Semenovlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish jarayonida qishloq xo'jaligi va sanoatda eng ko'p foydalaniladigan kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning xususiyatlari, yonish va portlashga xavfliligi, ularning inson organizmiga ta'siri va atmosferadagi holati o'rganilgan [3, 4]. Milliy va xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kuchli ta'sir etuvchi zaharli modda atrof-muhitga tarqalib, inson organizmida zaharlanish holati yuzaga kelsa, u teri, oshqozon-ichak yo'llari hamda nafas olish organlari orqali qonga so'riladi. Qon orqali barcha organizm va to'qimalarga tashiladi hamda organizmning umumiy zaharlanishiga, ba'zan esa insonlarning qurbon bo'lishiga olib keladi. R.S.Sobirov tomonidan kimyoviy xavfli obyektlardagi avariylarning yuzaga kelish sabablari, ularni oldini olish tadbirlari hamda avariya sharoitida va avariya dan so'ng fuqarolarning harakatlari, shuningdek kimyoviy xavfli obyektlardagi yong'inlar va ularning ikkilamchi omillarini bartaraf etish tadbirlari o'rganilib, tahlil qilingan [5]. S. Kulpinov hamda Moskva davlat universitetining bir qator olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham kimyoviy xavfli obyektlardagi avariylarning yuzaga kelish sabablari, obyektlarning xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlari o'rganilgan [6, 7, 8, 9, 10] hamda zaharli modda ta'siridan aholi va hududlarni muhofaza qilish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berib o'tilgan.

Tahlil va natijalar

Tahlil natijalariga asosan kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar ta'siridan fuqarolarni muhofaza qilishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- kimyoviy xavfli obyekt va hudud aholisiga favqulodda vaziyat chog'ida to'g'ri harakatlanish bo'yicha davriy va zaruratga qarab navbatdan tashqari yo'riqnomalar tashkil etish;
- kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarni oldini olish;
- kimyoviy avariya yuzaga kelgan taqdirda aholining barcha qatlamini ogohlantirish;
- himoya inshootlariga (panagoh) yashirish;
- shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish;
- shikastlangan hududlarda xavfsizlik talablariga rioya qilish;
- zararlangan hududlardagi odamlarni evakuatsiya qilish;
- jabrlangan shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatish;
- fuqarolarni sanitar-qayta ishlov, kiyim-kechak, inshootlarni, transport va texnikalarni degazatsiya qilish.

Yo'riqnoma bu insonlarning hayot faoliyati jarayonida ularning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xavfsizlik texnikasi majmuidir. Yo'riqnomalar kirish yo'riqnomasi va ish joyida o'tkaziladigan yo'riqnomalardan iborat. Yo'riqnomalar maxsus jihozlangan xonalarda, yetakchi mutaxassislar rahbarligida amalga oshiriladi. Yo'riqnoma o'tish jarayonida fuqaro muhofazasi boshliqlarining majburiyat va vakolatlariga alohida to'xtalib o'tiladi [11, 12, 13].

Hududlarda kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning tarqalishi xavfi yuzaga kelganda yoki sodir bo'lganda mahalliy davlat xokimiyati organlari rahbarlari - fuqaro muhofazasi boshliqlarining amalga oshirishi zarur bo'lgan tadbirlari

Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarni tarqalishi xavfi yuzaga kelganda [14]:

- zaharlanish ehtimoli mavjud hudud aholisini xabardor qilish;
- shaxsiy himoya vositalarini aholiga tarqatish;
- FVDT rahbar tarkibini yig'ish, vaziyat to'g'risida xabardor qilish va vazifalar qo'yish;
- radiatsiyaviy va kimyoviy razvedka maskanlarini tashkil etish;
- muhofaza inshootlarini aholini qabul qilishga tayyorlash;
- FVDT tuzilmalarini shay holatga keltirish;
- tuman, shahar, viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmalari bilan o'zaro hamkorlikni tashkil etish va aloqa o'rnatish;
- shaxsiy muhofaza vositalari bilan ta'minlanmagan aholini evakuatsiya qilish tadbirlariga tayyorlash.

Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning tarqalishi sodir bo'lganda [14]:

- "Diqqat, barchaga!" signalini berish va aholini ogohlantirish;
- avariya sodir bo'lgan ob'ektda, zaharlanish ehtimoli mavjud zonalarda razvedka ishlarini tashkillashtirish;
- shaxsiy himoya vositalarini aholiga tarqatish;
- FVDT rahbar tarkibini yig'ish va vazifalar qo'yish;
- radiatsiyaviy va kimyoviy nazorat maskanlarini tashkil etish va ular bergan ma'lumotlarni yig'ish;
- zaharlanish zonasidagi ob'ektlarning ish faoliyatini tugatish;
- avariya ro'y bergan ob'ekt xolati bilan tanishish;
- aholini panagohlarga, radiatsiyadan yashirish joylari, oddiy muhofaza inshootlariga yashirish;
- FVDT tuzilmalarini, otryadlarini shay xolatga keltirish va ularga vazifalar qo'yish;
- jabrlanganlarga yordam ko'rsatish, ularni xavfsiz joylarga ko'chirish;
- aholini zaharlanish zonasidan tashqariga ko'chirish.

Obyektlarda kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning tarqalishi xavfi yuzaga kelganda yoki sodir bo'lganda mahalliy davlat xokimiyati organlari

rahbarlari - fuqaro muhofazasi boshliqlarining amalga oshirishi zarur bo'lgan tadbirlari

Kimyoviy avariya xavfi yuzaga kelganda [15]:

- favqulodda vaziyat xavfi to'g'risida yuqori tashkilotlarga, favqulodda vaziyatlar vazirligining hududiy boshqarmasi, bo'limlariga, tegishli hudud rahbarlariga va obyekt rahbariga, ishchi xodimlariga hamda aholiga xabar berish;

- manbadan moddani tarqalishini oldini olish tadbirlarini amalga oshirish;
- ishchilarni zaruriy shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash;
- panagohlarni, radiatsiyadan yashirinish joylarini tayyorlash;
- yong'in-portlash xavfini kamaytirish bo'yicha tadbirlar o'tkazish;
- obyekt territoriyasini neytrallash uchun moddalarni, asbob-uskunalarni tayyorlash;

- havodagi mavjud gaz miqdorini kamaytirish maqsadida havoga suv purkash uchun suv zahirasi va mashinalarni tayyorlash;

- radiatsion-kimyoviy nazorat maskanlarini o'rnatishni tashkillashtirish;
- korxonadagi barcha tuzilma, otryadlarni shay holga keltirish;
- korxonada ob'ekt rahbariyatidan kechayu-kunduz navbatchiliklar tashkil etish;

- navbatchi-dispatcherlik xizmatini ish faoliyatini kuchaytirish;
- maxsus operativ guruhlar tuzish;
- evakuatsiya tadbirlarini amalga oshirish uchun avtotransport va qabul qilish punktlari tayyorlash;

- taqvim rejaga aniqliklar kiritish;
- sex ichidagi suv tomchilatish (suv to'sig'i) tizimining holatini tekshirib ko'rish.

Kimyoviy avariya sodir bo'lganda [15, 16]:

- kimyoviy avariya to'g'risida favqulodda vaziyatlar vazirligining hududiy boshqarmasi yoki bo'limlariga, yuqori tashkilotga, tuman yoki shahar hokimiyatiga, rahbarlarga va ishchilarga xabar berish;

- FV sodir bo'lgan manbani, ob'ektni razvedka qilish ishlarini amalga oshirish;
- shtab a'zolarini boshqaruv punktiga yig'ish;
- zararlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;
- manbani lokalizatsiya qilish bo'yicha zaruriy tadbirlar o'tkazish;
- atrof muxitda gazning konsentratsiyasini kamaytirish bo'yicha suv to'siqlarini yaratish, suv purkash ishlarini o'tkazish;
- ishchilarga shaxsiy muhofaza vositalarini tarqatish;
- ishchi va xizmatchilarni muhofaza inshootlariga yashirish;
- sharoitni hisobga olingan holda ishchi va xizmatchilarni shahardan tashqaridagi zonalarga evakuatsiya qilish;
- yordamga kelgan xizmatlar bilan hamkorlikda ish olib borish;
- energetika, kanalizatsiya, suv, bug' tizimlaridagi shikastlanishlarni bartaraf etish;
- zaxarlanish manbasiga, ob'ektga kirish-chiqishni nazorat qilish va jamoat tartibini saqlash;
- maxsus kiyimlarni, avtomashinalarni, hududni degazatsiya qilish.

Xulosa. Hozirgi kunda ishlab chiqarish jarayonida, qishloq xo'jaligi va hayotimiz mobaynida yuzlab har xil kimyoviy birikmalar ishlatilmoqda. Ular insoniyat, hayvonot olami va o'simlik dunyosi uchun zararli hisoblanib, ularning soni kun sayin ortayotganini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli ham, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar xavfi ortaveradi. Tabiiy, texnogen va ekologik tushadigan favqulodda vaziyatlar, avariya va fojialar oqibatlarini tugatish bo'yicha to'plangan tajribalar, fuqarolar muhofazasida olingan nazariy bilimlar, yuqorida ta'kidlangan FVlarda, fuqarolarni ongli ravishda tez, qat'iyan harakat qilishga, iqtisodiyot tarmoqlarini tezda qayta tiklab, uni ishga tushirib yuborishga va talofot ko'rganlarga o'z vaqtida kerakli yordamlarni ko'rsata olishga o'rgatadi. Albatta, bu vazifalar, tabiiy ofatlar, avariya va talofotlarning tabiati, tavsifi, kelib chiqish sabablari va ularni keltiradigan oqibatlarini chuqur o'rganish natijasidagina amalga oshiriladi. Shu sababdan fuqaro muhofazasi xodimlari oldiga juda katta

ma'suliyat (harbiy davrda ham, tinchlik davrida ham) fuqarolarni FVlar ruhida o'qitish vazifasini qo'yadi.

O'zbekistonda turli xarakterdagi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, talofatlar ko'lamini toraytirish, insonlar hayoti va ular tomonidan yaratilgan moddiy boyliklarga yetadigan zararlarning oldini olish yoki ularni kamaytirishni ta'minlashda ishtirok etadigan barcha xizmatlarning o'zaro munosabatlarini belgilovchi va tartibga soluvchi qator qonunlar va shu sohaga taaluqli bo'lgan Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan hamda hayotga joriy etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nigmatov I., Tojiyev M. „Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi“, darslik . - T.:Iqtisod-Moliya, 2011. – 262 b.
2. Sapayev M.S., Qodirov F.M. “Favqulodda vaziyatlarda hayot faoliyati xavfsizligi”, ma'ruzalar matni. TATU – 2013. – 194 b.
3. O'.R.Yo'ldoshev, O.D.Rahimov, R.T. Xo'jaqulov, O.T.Hasanova. “Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi”, o'quv qo'llanma. Toshkent – “Davir” – 2013. – 200 b.
4. J.M.Qurbonov, J.S.Fayziev. “Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi”, o'quv qo'llanma. SamISI - 2009. – 284 b.
5. J.M.Qurbonov, Z.E.Mamarasulov. “Hayot faoliyati xavfsizligi”, o'quv qo'llanma. SamISI - 2016. – 272 b.
6. F.A.Abidova, A.B.Abidov. “Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning xususiyatlari”. O'zR FVV FMI – 2013. – 530 b.
7. R.S.Sobirov. “Kuchli ta'sir etuvchi zaharli va radioaktiv obyektlardagi o'ziga hos yong'inlarni o'chirish”, uslubiy qo'llanma. O'zR FVV FMI – 2017. – 30 b.
8. Turagalov T.J., Ilyosova Z.F. Favqulodda vaziyatlar. (qisqacha ruscha-o'zbekcha ensiklopedik izohli lug'at). – T.,FMI, 2016. – 220 b.

9. Sharipov A.X. “Kimyoviy xavfli obyektida va temir yo‘l transportida kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalarni saqlash”, uslubiy qo‘llanma. Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti, 2010 y. - 23b.

10. S.Gazinazarova, O.Yuldoshev. “Avariya qutqaruv ishlari”, o‘quv qo‘llanma. Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti, 2013 yil. - 160 b.

11. A. Boymirzaev. “Hayot xavfsizligi va birinchi tibbiy yordam”. T. – “Zilol buloq” – 2019. - 396 b.

Internet resurslari:

12. www.Lex.uz - O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchilik bazasi.

13. www.Referat.uz - referat ma’lumotlari bazasi

14. <http://diss.natlib.uz/>

15. <http://www.natlib.uz/>

16. www.Ziyonet.uz